

**POLIKSITOZ SINDROMI (PCOS) VA UNING DAVOLASH YO'LLARI  
HAQIDA BATAFSIL SO'Z YURITILADI.**

**НАРУШЕНИЕМ БИОХИМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, И МЕТОДАХ ЕГО  
ЛИЧЕНИЯ.**

**OF BIOCHEMICAL PROCESSES ,AND ITS TREATMENT METHODS .**

*Kokand University Andijon filiali Tibbiyot fakulteti*

*Davolash ishi yo'nalishi 202-guruh talabasi*

**Mutallibova Oyshaxon Jamoliddin qizi**

*“Tuxumdonlar polikistoz sindromi (PCOS)” mavzusida yozgan maqolasi*

*Ilmiy rahbar; Feruza A'zamjanova*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola ayollar orasida tobora shiddat ila tarqalayotgan biokimyoviy jarayonlarning buzilishi natijasi yuzaga kelgan “TUXUMDONLAR*

**Kalit so'zlar;** *PCOS, Folikul, chavaemulum nobile, vitex agnuscastus, cinnamon, ginger, girsutizm.*

**Абстрактны:** *В этой статье мы подробно поговорим о” Синдроме поликистозных яичников (СПКЯ)”, который все чаще распространяется среди*

**Ключевые слова** *СПКЯ, фолликул ,chavaemulum nobile ,vitex agnuscastus, cinnamon , ginger, Грсутизм . женщине, визванном*

**Abstract:** *In this article, we will discuss in detail about “POLYCYSTIC OVARY SYNDROME (PCOS), which is increasingly spreading among women ,caused by a violation*

**Key words ;** *PCOS, follicle , chavaemulum nobile, vitex agnuscastus, cinnamon, ginger, hirsutism.*

### **KIRISH**

Tuxumdonlar polikistoz sindromi (PCOS)- reproduktiv yoshdagi ayollar orasida keng tarqalgan gormonal kasallik bo'lib ,tuxumdon faoliyatining buzilishi,

Gormonal muvozanatning o'zgarishi va tuxumdonlarda ko'p sonly kistalarning hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sindrom nafaqat reproduktiv salomatlikka , balki

Ayolning umumiy salomatligi va hayot sifatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin .

### **ASOSIY QISM**

Tuxumdonlarda polikistoz sindromi (PCOS) -bu garmonlarning muvozanati buzilishi tufayli kelib chiqadigan umumiy gormonal buzuvchilikdir. Ushbu

Sindrom reproduktiv yoshdagi ayollarning taxminan 6-10%da uchraydi va ayollarda hayz siklining buzilishi, bepustlik, ortiqcha tana tuklari (girsutizm), akne, semizlik

Kabi alomatlar bilan ifodalaniadi. Kasallikning patogenezi tuxumdonlarning follikulyar rivojlanish jarayonidagi buzilishlar insulinrezistentlik va androgen garmonlarning

Ko'payishi bilan bog'liq. Bu kasallikning sabablari hali to'liq o'rganilmagan bo'lsada bir qancha omillar muhim hisoblanadi.

Genetik omillar; oilaviy predispozitsiya mavjud bo'lishi mumkin.

Gormonal nomutanosiblik; Tuxumdonlarda androgen garmonlarning (erkak garmonlari) ortib ketishi.

Insulinrezistentlik; Tanada insulinga sezgirlikning pasayishi va androgenlarning sintezi ortishi.

Yashash tarsi; Notog'ri ovqatlanish, kam harakatlilik va stress kasallik xavfni ortishiradi.

Sindromning klinik belgilari;

1. Hayz siklining buzilishi (kam yoki kechikib kelishi)
2. Tuxumdonlarda kistalar (ultrotovushda ko'rinadi)
3. Bepushtlik
4. Ortiqcha tana tuklari (grisutizm) va soch to'kilishi va yana bir qancha belgilarni ko'rishimiz mumkin .

Tuxumdonlar poliksitoz sindromi (PCOS) davolashda tabiiy o'simliklardan va sintetik preparatlardan foydalanish mumkin.

#### TABIIY O'SIMLIKLAR;

1. Moychechak (Chameamulum nobile) -gormonlarni balanslashga yordam beradi va yallig'lanishni kamaytiradi.

FOYDALANISHI; Choy sifatida ichiladi.

2. Dolchin (cinnamon) -insulin sezuvchanligini oshiradi va qondagi qand miqdorini nazorat qiladi.

FOYDALANISHI; Ovqatga qo'shish yoki suvda eritib ichish.

3. Qo'trigo'yon ( Vitex agnus-castus) -Gormonlarning normal ishlashiga yordam beradi va ovulyatsiyani rag'batlantiradi.

FOYDALANISHI; Qo'trigo'yon ekstraktidan kapsula yoki damlama shaklida.

4. Zanjabil (Ginger) -yallig'lanishga qarshi xususiyati bilan gormonlar muvozanatini yaxshilaydi.

FOYDALANISHI; Choy yoki qo'shimcha sifatida.

5. Aloe ver -Yallig'lanishni kamaytiradi va metabolizimni yaxshilaydi.

FOYDALANISHI; Sharbat yoki ekstrakt shaklida ichish.

#### SINTETIK PREPARATLAR;

1. Metformin -insulin sezuvchanligini kamaytiradi va tuxumdon funksiyasini yaxshilaydi.

Tavsiya; 500-1000mg/kun ,shifokor nazorati ostida .

2. Kombinatsiyalangan gormonal kontratseptivlar (KOK) -Gormonlar balanisini tiklash va hayz siklining tartibga solishda ishlatiladi.

Misollar; Diane-35, Yasmin, Marvelon .

3. Letrozol yoki klomifen sitra -Ovulyatsiyani rag'batlantirish uchun ishlatiladi.

4. Myo-inositol va D-chiro-inositol -Insulin sezuvchanligini yaxshilaydi va metabolik jarayonlarni qo'llab quvvatlaydi.

5. Spironolakto-androgenlar miqdorini kamaytiradi va akne yoki ortiqcha tuklanishni kamaytiradi.

Davolashni boshlashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish lozim, chunki PCOS individual yondashuvni talab qiladi. Giyohvand moddalar va tabiiy vositalar birgalikda ishlatilishi mumkin, lekin dozalash va kombinatsiyani nazorat qilish zarur.

#### XULOSA ;

Tuxumdonlar polikistoz sindromi reproduktiv va umumiy sog'liq uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Ushbu sindromni erta aniqlash va davolash orqali ayollarning hayot sifatini oshirish mumkin. Profilaktikava davolashda sog'lom turmush tarziga rioya qilish muhim o'rin tutadi. Bu sindromga befarqlik bilan qaramaslik lozim, chunki, ayol kelajak davomchisi hisoblanadi. Tabiatning betakror asari bu -AYOLdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Akusher va ginekologiya -Ayupova F.M, Ixtiyarova G.A, Matrizayeva G.J.
2. Ginekologiya -Ayupova F.M, Yu.Q.Djabborova.
3. Ginekologiya asoslari- Ziyayeva
4. <https://med24.uz/uz/bolezni/polikistoz-yaichnikov>
5. <https://www.uzsammu.uz/uz/article/1627/download>
6. Muallif: Mutallibova Oyshaxon Jamoliddin qizi.
7. Email: oyshaxonmutallibova06@gmail.com
8. Tel nomer: +998934438535